

Xizmatlar sohasi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar- iyul

Raqamlar:

- 2018 yil yanvar-iyul oylarida bozor xizmatlari hajmi – 2970,2 mlrd. so`m tashkil etdi.
- Jami xizmatlarning o'sish sur'ati 108,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1175,8 ming so'mni tashkil etdi.


Zamonaviy dunyoda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ko'rsatilayotgan bozor xizmatlari turlarining ro'yxati juda xilmalil bo'lib, bular savdo va transport xizmatlaridan tortib moliyaviy, sug'urta va turli xil vositachilik xizmatlaridan iborat.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida chora-tadbirlarning davom ettirilishi xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish imkonini bermoqda. Natijada, viloyatimizda 2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 2970,2 mlrd. so'mni tashkil etdi .

Bozor xizmatlarining eng katta hajmi savdo xizmatlari, transport xizmatlari, moliyaviy xizmatlar, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, yashash va ovqatlanish xizmatlarida kuzatilmoqda.


Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (41,4 %), transport xizmatlari (17,7 %), moliyaviy xizmatlari (11,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,6 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,8 %), shaxsiy xizmatlar (3,3 %) va kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (3,2 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-iyul oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Xizmatlar jamiyat hayotining muhim sohasi bo'lib, hayot darajasini oshirishning asosiy omili hisoblanadi.


2018 yil yanvar-iyul oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisdating moliyaviy xizmatlar (147,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (133,2 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (115,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (112,1 %), sog'lijni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,5 %) kabi xizmatlarning o'sish sur'atlari yuqori sur'atlarda oshdi.



Xizmatlar ishlab chiqarish hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Ta'kidlash joizki, jismoniy va yuridik shaxslarning xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmatlar sohasini hududlarda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishini ta'minlamasdan turib Respublika iqtisodiyotining yirik tarmog'i sifatida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirib bo'lmaydi.

**2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**

	Hajmi, mlrd,so`m	O'tgan yilga nisbatan o'sish su'rati %
Xizmatlar - jami	2970,2	108,4
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	194,9	112,1
Moliyaviy xizmatlar	352,7	147,4
Transport xizmatlari	525,9	101,6
shu jumladan avtotransport xizmati	507,7	101,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	112,9	107,7
Savdo xizmatlari	1230,5	103,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	90,7	104,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	75,9	133,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,2	108,5
Ijara xizmatlari	75,7	112,8
Kompyuterlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	93,7	100,6
Shaxsiy xizmatlar	97,1	100,6
Me'morchilik sohasidagi xizmatlar	20,4	115,9
Boshqa xizmatlar	69,6	96,7

2018 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1175,8 ming so'mga teng bo'ldi, o'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 106,2 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar- iyul oylarida Surxondaryo viloyati bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlari



